

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**TASHDOLANGAN VA AMALGA KERITUG'LANISHI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023-yilning 22-iyul -da qilingan qonungi bilan tashdolangan.

**JORIY ERGAN**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**70230104 - Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti)  
magistratura mutaxassisligining malaka talablari**

Majlis Muxlis talabini "Oliy ta'lim davlati shaxsiy mukofotlari, Aksiy unidalar", "Oliy ta'lim davlati shaxsiy mukofotlari, Oliy ta'lim yo'nalishlari ya'ni mazkur unidalar" Matoshiborasi O'zbekiston Respublikasi Hukm-i Tazkerasi mukofotlari bo'yicha (mukofot), hukm-i tazkerasi va hukm-i bayartmaschulari o'ziga qo'shishga chiqqigan va rasmiy hisoblangan.

O'zbekiston Respublikasi Hukm-i Tazkerasi mukofotlari rasmiy shaxsiy mukofotlari  
Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**Toshkent**

**ЎЗР ОУМЛВ**

**Бўйруқ № 397**

**-29 - 08 2023 йил**

## **ISHLAB CHIQILGAN:**

- O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «29» 08 dagi 397-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70230104 – <i>Adabiyotshunoslik</i> (ingliz <i>adabiyoti</i> ) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi .....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1	70230104 – <i>Adabiyotshunoslik</i> (ingliz <i>adabiyoti</i> ) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70230104 – <i>Adabiyotshunoslik</i> (ingliz <i>adabiyoti</i> ) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatları tasnifi.....	4
1.2.1.	70230104 – <i>Adabiyotshunoslik</i> (ingliz <i>adabiyoti</i> ) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	70230104 – <i>Adabiyotshunoslik</i> (ingliz <i>adabiyoti</i> ) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3	70230104 – <i>Adabiyotshunoslik</i> (ingliz <i>adabiyoti</i> ) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4	70230104 – <i>Adabiyotshunoslik</i> (ingliz <i>adabiyoti</i> ) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	70230104 – <i>Adabiyotshunoslik</i> (ingliz <i>adabiyoti</i> ) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumi kompetentsiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy o‘mpetentsiyalar.....	7
2.3	Umumi va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2	70230104 – <i>Adabiyotshunoslik</i> (ingliz <i>adabiyoti</i> ) mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3	70230104 – <i>Adabiyotshunoslik</i> (ingliz <i>adabiyoti</i> ) mutaxassisligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma’lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

## **1. 70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi**

**70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti)** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me’yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. 70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi **70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti)** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

##### **1.2.1. 70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

**70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti)** – “Tillar” ta’lim sohasiga oid mutaxassislik bo‘lib, u uzuksiz ta’lim tizimining davlat va nodavlat tashkilotlarida ingliz tili va adabiyotini o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, mahalliy va xalqaro tashkilotlarda tarjimonlik, ingliz tilida materiallar tayyorlash va ularni tahrir qilish kabi kasbiy ko‘nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari va metodlari majmuasini qamrab oladi.

##### **1.2.2. 70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- oliy ta’lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash, professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot faoliyatni va jarayonlar;

- til markazlarida, ilmiy va texnologik masalalar bilan shug‘ullanadigan muassasalarda;

- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, oliy va o‘rta maxsus ta’lim, xalq ta’limi tizimi tashkilotlarida boshqaruv jarayonlari;

- ekspertiza-tahlil markazlarida;

- konsalting va marketing tashkilotlarida faoliyat yuritish.

### **1.2.3. 70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- tarjima va tahrir faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- konsalting xizmati faoliyati.

### **1.2.4. 70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy vazifalari.**

70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Ilmiy tadqiqot faoliyatida:**

- zamonaviy ilmiy va ijodiy paradigmadan xabardor bo‘lish, tanlangan ilmiy va kasbiy sohaning o‘zgarish sur’ati haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi;
- kasbiy masalalarni bartaraf qilishda falsafiy tushunchalar, adabiyotshunoslik, jahon adabiyoti, adabiy tanqidchilik, adabiyot nazariyasi va lingvodidaktika sohalariga tegishli bilimlardan foydalanishi;
- chet tilida og‘zaki va yozma nutq madaniyati qobiliyatlariga ega bo‘lishi;
- ilmiy ish metodologiyasi va metodikasi asoslarini chuqrur bilishi;
- kasbiy muammolarni hal etish jarayonida turli sohalarga oid va axborot-kommunikativ vositalaridan olingan bilimlarni tizimlashtirish, moslashtirish va amalda qo‘llashga ijodiy yondashishi;
- o‘rganilayotgan fanlarning o‘zaro bog‘liqligini anglash va ularning bo‘lajak kasbga bo‘lgan ahamiyatini tushunishi;
- adabiyot sohasida ilmiy tadqiqotlarning sifatini baholay olish, mayjud bo‘lgan ma’lumotlarni yangilari bilan solishtirish, mantiqiy va bosqichma-bochqich ravishda o‘z tadqiqotini targ‘ib qila bilish va pragmatik doirada amalga oshirishi;
- olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar nazariy xulosalarini isbotlash maqsadida turli qonuniyat va jarayonlarni aniqlashi;
- olingan ilmiy-amaliy ma’lumotlarni ishlab chiqish va tushuntirish, bibliografik manbalardan ma’lumotlar to‘plashning zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llashi;
- ilmiy-amaliy anjumanlarda mutaxassislikka oid ma’ruzalar bilan qatnashishi;
- ish sharoitidagi yangi o‘zgarishlarga moslashish, egallangan bilim, malaka, ko‘nikmalarni kasbiy sohadan tashqarida ham ijodiy qo‘llashni bilishi;
- ilmiy uslubda yozilgan dissertasiya, hisobot, esse, tezis, taqriz, referat, annotasiya, ma’ruza, xorijiy ilmiy maqola matnlarini anglash va chet tilida maqola yoza olishi;
- bilim, malaka, tadqiqot metodlarini ilmiy va amaliy faoliyatda mustaqil o‘rganish va qo‘llash, ilmiy kompetentsiyalarni chuqurlashtirish va kengaytirishi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati doirasida kasbiy masalalarni tadqiq etishning nazariy asoslarini qo‘llagan holda chet tillaridagi turli badiiy matnlarni tahlil va tahrir qilish;
- chet tillaridagi turli badiiy matnlarni tarjima qila bilish;
- badiiy asarlarga izohlar keltira bilish;
- yangi badiiy asarlarni nashriyotlarda taqdimot qilish malakasiga ega bo‘lish;
- ilmiy anjuman va seminarlar uchun ilmiy maqolalarni tahrirlash va tarjima qilishda amaliy uslublarini keng qo‘llay olish.

#### **Pedagogik faoliyatda:**

- oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi egallashi;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan’anaviy o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- mustaqil ta'lif va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va boshqa sohalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ekspert-tahliliy ishlarni amalga oshirish maqsadida, induktiv va deduktiv kuzatish, tahlil qilish, baholash va statistik tahlil qila olish.

#### **Tarjima va tahrir faoliyatida:**

- ingliz tilidagidagi turli tipdag'i matnlarni tarjima va tahrir qila olish;
- madaniyatlararo muloqotning turli jabhalarida muayyan tarjima shakllarini, strategiyalarini va usullarini qo'llab tarjima qilish;
- lisoniy, lingvomadaniy adekvatlikni va kommunikativ maqsadni inobatga olgan holda matnni tarjima qilish;
- anjuman va seminarlardagi ilmiy materiallarni tahrir yoki tarjima qilish;
- reklama tashkilotlarida ingliz tilida reklama matnlarini yaratish va tarjima qilish;
- nashriyot va bosmaxonalarda badiiy uslubga oid matnlarni tahrir qilish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda pedagogik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash, ta'lif menejmentini egallash;
- o'zining kasbiy faoliyatiga oid mehnat bozori va ish bilan ta'minlanish bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish;
- mehnat jamoasining umumiylariga erishish va ijrochilarning faoliyatini monitoring qilish maqsadida loyihibiy, individual va guruh faoliyatini vujudga keltirish;
- auditoriya va pedagogik jamoani boshqarish hamda o'quv jarayonini o'rnatilgan tartibda tashkil qilish;
- jamoa psixologiyasiga oid tizimli bilimlarni, tashkiliy ishlarda menejment asoslarini qo'llashni bilishi lozim.

#### **Konsalting xizmati faoliyatida:**

- mutaxassisliklar bo'yicha adabiyotshunoslik sohasida mavjud holatning analitik obzorlarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim;
- ingliz tilidagi manbalarni adabiy nuqtai nazardan taddiq etish borasida ekspertlar guruhlarida qatnashish;
- mutaxassisligiga aloqador masalalar bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

### **2. 70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar**

#### **2.1. Umumiy kompetentsiyalar:**

- intellektual, madaniy, ma'naviy, jismoniy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi va bu qobiliyatni amalda qo'llay bilishi;
- tarixiy meros va madaniy an'analarga samimiy munosabatda bo'lishi, ijtimoiy va madaniy farqlarni bag'rikenglik bilan qabul qilishi;
- zamonaviy taddiqot metodlarini mustaqil ravishda o'rganish hamda ilmiy va ilmiy ishlab chiqarish doirasida kasbiy faoliyatini o'zgartirishni bilishi;
- umuminsoniy qadriyatlarni chuqur tushunish, o'zbek va tili o'rganilayotgan mamlakatlar xalqlari jamiyatlariga xos bo'lgan ijtimoiy, milliy, diniy va kasbiy sifatlar va qadriyatlarni bilish,

farqlash, baholash, hurmat qilish va inobatga olish va kasbga oid sohalarda boshqaruv ishlarini amalga oshirishi;

- bir jamoa bo‘lib ishlash, qabul qilingan axloqiy va huquqiy qoidalarga riosa qilgan holda ijtimoiy o‘zaro ta’sir o‘tkazish, shaxsiyatni hurmat qilish, ishonchli hamkorlik munosabatlarini ta’minlashda mas’uliyatni sezish va javobgarlikka tayyor turishi;
- zamonaviy sivilizatsiyani saqlab qolish va rivojlantirishda gumanitar qadriyatlarning ahamiyatini anglab yetish;
- fikrlash madaniyati, tahlil qilish, ma’lumotlarni umumlashtirish, maqsad qo‘yib unga erishish yo‘llarini izlash qobiliyatlariga ega bo‘lishi;
- o‘z mamlakati fuqarosi sifatida huquq va majburiyatlarini bilish, kasbiy faoliyatida amaldagi qonunlarga bo‘ysunishi;
- madaniyatlararo kasbiy muloqot vositasi sifatida chet tilini mukammal bilish;
- tahlikali va boshqa vaziyatlarda tashabbuskorlik qilish, o‘zi qabul qilgan qarorlarga javobgar bo‘lishi;
- umumiylar va kasbiy jihatdan rivojlanish uchun o‘z mutaxassisligi va boshqa sohalarga tegishli bo‘lgan yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallashi;
- yangi g‘oyalarni o‘ylab chiqish, turli vaziyatlarga moslasha olish, to‘plangan tajribalarni tanqidiy o‘rganish, o‘z imkoniyatlarini tanqidiy baholashi;
- o‘z mutaxassisligining kelajak uchun bo‘lgan ahamiyatini anglash, kasbiy faoliyatini amalga oshirishda mas’uliyat bilan yondashishi.

## **2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:**

- adabiyot sohasida ilmiy tadqiqotlarning sifatini baholay olish, mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni yangilari bilan solishtirish, mantiqiy va bosqichma-bochqich ravishda o‘z tadqiqotini targ‘ib qila bilish va pragmatik doirada amalga oshirishi;
- uzluksiz ta’lim tizimining DTSlari, malaka talablari va boshqa o‘quv-me’yoriy hujjalarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- o‘quv-metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish, loyihalash, modellashtirish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lish;
- ingliz tili va adabiyotini o‘qitishda turli yondashuv, yo‘nalish va texnologiyalarni rivojlantirish orqali yangi modellarni ishlab chiqish;
- milliy va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy, ta’limga oid, ijodiy, reklama loyihalarini ishlab chiqish;
- loyihalash malakalarini qo‘llash orqali kompyuterning matn redaktori yordamida tarjima matnni rasmiylashtirish;
- turli madaniyat va jamiyat vakillari orasida taxminiy muloqot vaziyatlarini modellashtirishni bilish;
- autentik tilni kognitiv va formal modellashtirish usullarini va metatillarni yaratish usullarini bilish;
- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirop etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirop etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

## **2.3. Umumiylar va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan umumiylar talablar**

Talabalar umumiylar va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketmasetlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish

hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo‘yicha bevosita umumiyligi va kasbiy kompetentsiyalarni egallahsga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligidan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘sishimcha bilim berish, bevosita mutaxassisligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, magistrarning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorlprini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

**Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertasiyasini tayyorlash:** Magistrlik dissertasiyasining mutaxassislik bo‘yicha muhim hamda istiqbolli mavzulariga bag‘ishlangan, ilmiy jihatdan asoslangan, metodologik yo‘llari belgilangan, mazmuni tizimli shaklda ilmiy tadqiqotning asoslarini, uning bajarilishini va olingan natijalarini o‘zida aks etttiradi. Bunda ilmiy faktlar har taraflama tahlil qilinadi va muayyan hodisaning ilmiy va amaliy ahamiyati isbotlanadi.

Mutaxassislik bo‘yicha qu‘yidagi ilmiy-pedagogik amaliyotlar o‘tkaziladi:

**Ilmiy-pedagogik ish** – mutaxassislik bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayoniga tatbiq etish, amaliy ko‘nikma va kasbiy kompetentsiyalarni takomillashtirish qaratiladi, shuningdek, o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalar va o‘quv rejalarini tuzish, mutaxassislik bo‘yicha fanlardan nazariy, amaliy va mustaqil mashg‘ulotlarni o‘tkazish. Ilmiy-pedagogik ish oliy ta’lim muassasalarida va tashkilotlarning tadqiqot bo‘limlarida o‘tkazilishi mumkin.

**Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)** – ilmiy va kasbiy kompetentsiyalarni maqsadli ravishda takomillashtirish, mutaxassislik bo‘yicha ilmiy bilimlarni chuqurlashtirish, ilmiy sohadagi so‘nggi yangiliklar, ishlanmalar va innovasion texnologiyalarni o‘rganish, shuningdek, eksperimental tadqiqotlar natijalariga ishlov berish, ularni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va tavsiyalarni ishlab chiqish malakalarini takomillashtirish, tadqiqotchilik va mustaqil ilmiy izlanishlar malakalarini oshirishga qaratilgan.

**2.3.1. Kvalifikatsiya:** adabiyotshunos, tadqiqotchi-pedagog

**2.3.2 70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:**

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1320	44
Tanlov fanlar	480	16
Ilmiy-pedagogik ish va ilmiy amaliyot	900	30
Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertasiyasini tayyorlash va himoya qilish	900	30

**2.3.3. 70230104 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiyluklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1320</b>	<b>44</b>	
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	AXT11-208	Amaliy xorijiy til	240	8	1-2
1.03	ATT1304	Adabiy tanqidchilik tarixi	120	4	3
1.04	AOT1104	Adabiy oqimlar taraqqiyoti	120	4	1
1.05	ZAAD11-208	Zamonaviy Angliya-Amerika adabiyoti	240	8	1-2
1.06	BMS1206	Badiiy matn stilistikasi	180	6	2
1.07	MFO’M1304	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	120	4	3
1.08	BMTM1206	Badiiy matn tahlil metodlari	180	6	2
		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>480</b>	<b>16</b>	1-3
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
	IIMD21-430	Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertasiyasini tayyorlash va himoya qilish	900	30	1-4
	IPI23-414	Ilmiy pedagogik ish	420	14	3-4
	ILAM2416	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	480	16	4
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>Hammasi</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, kredit-modul, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va o'quv dasturi, adabiyotshunoslik, badiiy asar, jahon adabiyoti, adabiy tanqidchilik, adabiyot nazariyasi, lingvodidaktika zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, o'quv davri, pedagogik faoliyat, tarjima va tahrir, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, magistrlik dissertasiyasi, ta'lim sohasi, autentik til, badiiy matn, tadqiqot metodlari, uzlusiz ta'lim tizimi, pedagogik jamoa, auditoriyani boshqarish, kasbiy kompetentsiya, lingvomadaniy adekvatlik, malaka darajasi, ilmiy ish metodologiyasi.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar  
iste'molchilari**  
**ISHLAB CHIQILGAN:**

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Rektor v.v.b. B.Kulmatov

2023 yil " "



**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi**

Direktor Sh.Yakubov



**Toshkent davlat o'zbek tili  
va adabiyoti universiteti**

Rektor Sh.Sirojiddinov

2023 yil " "



**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Rektor G.Rixsiyeva

2023 yil " "

M.O.



**"O'zbekistonda xorijiy tillar"  
elektron ilmiy-metodik jurnali va Internet  
portali**

Bosh muharrir G.Shukurova

2023 yil " "



M.O.

**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti 70230502 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti)  
mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim  
muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida**  
**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“ ” 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “O‘zbekistonda xorijiy tillar” elektron ilmiy-metodik jurnali va Internet portalı direktori G.Shukurova, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori G.Rixsiyeva, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Sh.Sirojiddinov, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori B.Kulmatov birgalikda quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**70230502 – Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti)**

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2021-yil 19-maydagagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarorlari hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Mutaxassislik bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsija etish mumkin.

**O‘zbekistonda xorijiy tillar” elektron  
ilmiy-metodik jurnali va Internet portalı  
direktori**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
rektori**

**Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti rektori**

**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
rektori v.v.b.**

**G.Shukurova**

**G.Rixsiyeva**

**Sh.Sirojiddinov**

**B.Kulmatov**